

**YOSHLAR TARBIYASIDA RAQAMLI MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH VA RAQAMLI
QARAMLIKNI OLDINI OLISHNING DOLZARB MASALALARI**

Sanaqulov Sardor Istamqulovich

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Orcid/0009-0005-5425-529X

Annotatsiya

Ushbu maqolada raqamli texnologiyalar jadallik bilan rivojlanib borayotgan davrda yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, ularda raqamli madaniyatni to'g'ri shakllantirish, raqamli qaramlikni oldini olishda dolzarb bo'lgan muhim omillar tahlil qilib o'tilgan. Jumladan, raqamli texnologiyalar va undan foydalanishning muhim jihatlari, uning shaxs tarbiyasiga ta'sir etish mexanizmlari, raqamli savodxonlikni oshirish yo'llari, raqamli texnologiyalardan foydalanishda axborot xavfsizligi tushunchasi, tanqidiy fikrlash hamda global raqamli muhitda sog'lom va barqaror tarbiyani to'g'ri tashkil qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar tarbiyasi, axborot xavfsizligi, raqamli madaniyat, raqamli qaramlik, raqamli etika, raqamli muhit, media madaniyat, sog'lom turmush tarzi, texnologik vositalar.

**АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ КУЛЬТУРЫ И ПРЕДОТВРАЩЕНИЯ
ЦИФРОВОЙ ЗАВИСИМОСТИ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ.****Аннотация:**

В данной статье проанализированы важные факторы, актуальные в эпоху стремительного развития цифровых технологий, для всестороннего воспитания подрастающего поколения, правильного формирования у них цифровой культуры и предотвращения цифровой зависимости. В частности, освещены ключевые аспекты использования цифровых технологий, механизмы их влияния на личность, пути повышения цифровой грамотности, понятие информационной безопасности при использовании цифровых ресурсов, развитие критического мышления, а также вопросы правильной организации здорового и устойчивого воспитания в глобальной цифровой среде.

Ключевые слова: воспитание молодежи, информационная безопасность, цифровая культура, цифровая зависимость, цифровая этика, цифровая среда, медиакультура, здоровый образ жизни, технологические средства.

**TOPICAL ISSUES OF SHAPING DIGITAL CULTURE AND PREVENTING DIGITAL ADDICTION IN
YOUTH UPBRINGING****Abstract:**

This article analyzes important factors relevant to the comprehensive upbringing of the younger generation in an era of rapidly developing digital technologies, focusing on the proper formation of digital culture and the prevention of digital addiction. In particular, it highlights key aspects of the use of digital technologies, mechanisms of their impact on personality development, ways to improve digital

literacy, the concept of information security in the use of digital tools, critical thinking skills, and the proper organization of healthy and sustainable upbringing in the global digital environment.

Keywords: youth upbringing, information security, digital culture, digital addiction, digital ethics, digital environment, media culture, healthy lifestyle, technological tools.

Kirish

Bugungi davrda insoniyat hayoti tobora raqamlashib, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadallik bilan faoliyatning barcha sohalariga kirib borayotganlik hodisasi sodir bo'layotganligini ko'rish mumkin. Axborot oqimi va shiddati har soniyada, butun dunyo miqyosida o'zining qamrovi va darajasini oshirib bormoqda. Raqamli muhit ta'siri natijasida shaxs rivojlanishi va xususiyatlari ham o'zgarib, yangicha yondashuv va qarashlarni taqozo etmoqda.

Hozirgi davrimiz dunyoning yetakchi mamlakatlari "To'rtinchi sanoat inqilobi", "Aqlli iqtisodiyot", "Innovatsion iqtisodiyot"ga o'tayotgani bilan xarakterlanadi. Pandemiya raqamlashtirish jarayonini yanada tezlashtirdi. Axborot texnologiyalari iqtisodiy o'sishning tom ma'nodagi "drayveri"ga aylanib bormoqda [1].

Darhaqiqat axborot iste'moliga bo'lgan yuqori ehtiyoj va talab bugungi kunda sezilarli darajada ortdi. Barcha yosh toifasi bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanib borayotganligi buning yaqqol tasdig'idir. Bunday faollik ko'pgina yangi muammolar ustida ishlashga ham sabab bo'lmoqda deb aytish mumkin. Xususan, axborotlar bilan ishlash ko'nikmasining yetarli emasligi, axborot madaniyatiga e'tiborning kamligi, me'yorning yo'qligi va raqamli qaramlikning ortishi singari bir qator sabablar bunga misoldir.

Ma'lumki kelajakka intilib yashaydigan yosh avlod sayyoramizda farovon hayot va yuksak taraqqiyot barqaror bo'lishi uchun yangi g'oyalar va ijodiy ruhda sa'y-harakatlarni amalga oshiradigan beqiyos kuchdir. BMTning Yoshlar strategiyasida ta'kidlanganidek, "Yoshlar siymosida eng qimmatli va o'ta muhim resurslar mujassam topgan bo'lib, unga har qancha investitsiya kiritisa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda bo'lib qaytadi" [2].

Mazkur tadqiqot ishida kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarni har tomonlama barkamol avlodlar qilib shakllantirishda yuqoridagi sanab o'tilgan muammolarga qanday yechim topish mumkinligi xususida so'z boradi.

Barchamizga ma'lum yoshlarning ta'lim va tarbiyasi har bir davrda o'ziga xos e'tiborni talab qiluvchi jihat sifatida qaralgan. Qaysiki mamlakat ushbu omilga jiddiy masala sifatida qaragan taqdirda, uning kelajagi barqaror bo'lishi kuzatilgan. Har tomonlama bilimli, salohiyatli yoshlar mamlakat ravnaqi yo'lidagi ulkan xazinadir. Bunday yo'lda bardavom bo'lishlik esa oiladagi barqaror muhit, ta'lim maskanlaridagi e'tibor va mas'uliyat hamda keng jamoatchilikni o'rni beqiyos.

Tarbiya chegara bilmas jarayon sanaladi. Uni har qaysi inson har joyda ko'rishi va olishi tabiiy. Shu boisdan ko'pgina yoshlar tarbiyasida tashqi muhit ta'siri sezilarli darajada ortgan. Tizimlilikni talab qiluvchi tarbiya jarayonida, tashqi tarbiya muhitining o'sib borish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Global tarmoqdagi axborot resurslarining o'sib kelayotgan yosh avlod hayot tarzining shakllanishiga ta'sirini tahlil qilish natijasida shunday fikr kelib chiqmoqdaki, ularning eng ommabopi sanalgan internet hozirgi kunda ijtimoiy munosabatlarining o'ziga xos muhitga aylanib qoldi. Axborot savodxonligi borasidagi tadqiqotlarning ko'rsatishicha, texnologik ko'nikmalar yoshlarda kattalarga nisbatan yaxshiroq shakllangan ekan. Bu holat zamonaviy yoshlar texnika yangiliklari bilan bolaligidan

boshlab tanishishi, ulardan shaxsiy yoki ijtimoiy maqsadlarda axborotni to'plashi, qayta ishlashi va uzatishda foydalanishi bilan bog'liq ekan. Shunday bo'lsa-da, yoshlar dalillar aniqligi va ishonchliligini baholashida ma'lum qiyinchiliklarga duch keladi [3].

Dunyoni o'zgartirgan inson aql-zakovatining asosida ilm turishi ham oddiy haqiqat. Inson ilmni ta'lim va tarbiya orqali oladi. Shu sababli, unga (ilmga) erishish yo'llarini topish, bilim olishga xizmat etuvchi mexanizmlarni ishlab chiqishga bo'lgan intilish-insoniyat tarixining ajralmas qismi bo'lib kelmoqda [4]. Bugungi tajriba shuni ko'rsatadiki, yaxshi tarbiya olgan bolaga ta'lim tezroq va samaraliroq singadi. Ilmni qadri yaxshi tarbiya orqali ortadi. Hozirgi kunda raqamli muhitdagi tarbiya jarayonidagi muammolar, raqamli qaramlik kayfiyatidagi yoshlarda kuzatilayotgani bu masalaga jiddiy yondashuvlarni talab qiladi.

Nega aynan yoshlarning bu jarayondagi faolligi yuqori?

Birinchidan, hozirgi kun yoshlari texnologik avlod vakillari ekanligidir. Raqamli dunyoga bu avlod tug'ilganidan boshlab kirib borayotganligi, ushbu muhit ta'sirida shakllanib borishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Turli xildagi raqamli platformalar, mobil o'yinlarni shaxs shakllanishining dastlabki bosqichida namoyon bo'lishi bu hodisani yanada kuchaytiradi.

Ikkinchidan, ko'plab yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi faolligining ortib borayotganligi. Bu ehtiyoj turli ko'rinishdagi yangi munosabatlarning shakllanishiga turtki bo'lmoqda. Masalan, onlayn muloqot, yangi do'stlar orttirish, guruhlarda faollik shular jumlasidandir.

Uchinchidan, raqamli muhitda ayrim yoshlar real hayotdagi turli muammolar va qiyinchiliklardan qochish uchun yechim sifatida virtual olamni tanlayotganliklari bunga misol sifatida qaraladi.

Hozirgi kunda shaxs axborot psixologik xavfsizlikni ta'minlanganlik darajasini o'rganish, yangi konsepsiyalar bilan boyitish bugungi kunda ijtimoiy taraqqiyot bosqichi uchun o'ta muhim vazifa hisoblanadi. Demak, hozirda har bir axborot chegara bilmaslik xususiyatiga ega ekan, ongi va dunyoqarashi shakllanayotgan yosh avlodning ma'naviy olami daxlsizligini asrash ko'pchilikni o'ylantirishi darkor. Internetni cheklab qo'yish yoki axborot olishni ta'qiqlash bilan muammo hal bo'lmaydi. Ma'lumki, hozirgi zamon yoshlarining hayotiy tushuncha va tasavvurlarini, asosan, internet shakllantirmoqda. Bu esa ta'lim-tarbiya muassasalarining ish faoliyatini qiyinlashtirib qo'ymoqda. Axborotning katta oqimi sharoitida inson o'zini erkin his eta olishi uchun axborot madaniyatiga ega bo'lishi kerak [5].

Xulosa

Bugungi kunda globalashuv ta'siri natijasida, jamiyat hayotida o'zgarishlar salmog'i yuqori darajada ortdi. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida, raqamli texnologiyalar imkoniyatlarining kengayib borishi hodisasi hisoblanadi. Buning samarasi insoniyat hayot faoliyatining barcha jabhalariga tez sur'atlarda kirib borayotganligi, axborot iste'molining ortayotganligi kabi omillar bilan harakterlanadi. Albatta bunday o'zgarishlar fonida yosh avlod ta'lim va tarbiyasi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etuvchi jihatlardan sanaladi.

Hozirda axborotlashgan jamiyatda ma'lumotlar shu qadar tezkor va shiddatliki, tez ta'sirga beriluvchan va qiziquvchan yoshlar, raqamli muhit ta'sirini to'liq anglab yetmasligi natijasida soxta axborotlar tuzog'iga tushib qolayotganliklari buning yorqin misolidir. Jumladan, raqamli qaramlik holatlarining kuchayib borishi, ruhiy beqarorlik, sog'lig'iga bog'liq bo'lgan muammolar va milliy qadriyatlardan uzoqlashib borishi singari salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun raqamli madaniyat faqat texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish emas, balki aniq maqsad, mas'uliyat va odob-

axloq me'yorlari, raqamli savodxonlik, axborot xavfsizligiga rioya qilgan holda foydalanish qoidalari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi".-T.: O'zbekiston, 2022. – B.174.
2. Mirziyoyev SH.M. "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik".-T.: O'zbekiston, 2023. – B.35-36.
3. Baratboyev B.B., "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati". – F.: 2024. – B.8-22.
4. Yazdonov U.T. "Ta'lim va tarbiya integratsiyasi". –S.: "Samarqand davlat chet tillar instituti" nashriyoti, 2024. – B.9.
5. Abdullayeva B.S.,Ro'ziyev Y.Z.,Ismoilova K.V. "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati". – T.: 2024. – B.137.
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 18.01.2021 yildagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" 23-son qarori.
7. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.